Aksiologik assimetriya, ikkala tilda ham yorqin tusli ranglar bilan bog‘liq bo‘lib, masalan, oq, ko‘k va h.k., bu assimetriya ezgulik, poklik va umid qadriyatlarini aks ettiruvchi ijobiy ma’noga ega hisoblanadi.

To‘q rangli tuslar (qora) ko‘proq salbiy o‘xshashliklar bilan bog‘liq bo‘lib, qiyinchiliklarni, qorong‘ilikni, yovuzlikni timsollashtiradi.

Ingliz madaniyatida qizil rang ko‘proq neytral va ko‘p qirrali rang sifatida qabul qilingan bo‘lsa, qoraqalpoq madaniyatida esa salbiy ma’noga ega (“**ántek”**, uyatsiz).

Diniy va madaniy omillarning ta’siri qoraqalpoq madaniyatida rang belgilari orqali ham aks etadi, bu ko‘proq diniy va falsafiy g‘oyalar bilan bog‘liq. Masalan, “oq” faqat poklik ramzi, balki ezgu tilaklarni ham qo‘llaydi (“aq jol”). Ingliz madaniyatida rangli frazeologik birliklar tarixiy yoki kundalik voqelik bilan bog‘lanadi (“red tape” – hujjatlardagi qizil lenta bilan assotsiatsiyasi sifatida).

Rang belgilariga ega frazeologik birliklarning ma’nosi ko‘pincha kontekst bilan belgilanadi. Masalan: “***White lie***” (ingliz) yaxshi niyatli kishi yolg’on gapirsa, “aq júrek” (qoraqalpoq) oq ko‘ngil pák kóńil hám miyir tımsalı bolıp tabıladı. “***Black list***” (ingliz) salbiy ma’no (qora ro‘yxat), “qara kún” (qoraqalpoq) esa qayǵuli voqea bilan bog‘liq.

Xulosa. Binar aksiologik tahlil ingliz va qoraqalpoq tillarining rang komponentli frazeologik birliklari umumi-soniy va madaniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettirishini ko‘rsatadi. Asosiy farqlar rangni madaniy qadriyatlar, tarixiy an’analar va mafkuraviy munosabatlar prizmasi orqali verballashtirishga taalluqlidir.

Rangli frazeologik birliklarning binaraksiologik tahlili ingliz va qoraqalpoq tillarining baholash semantikasidagi madaniy o‘ziga xosliklar va farqlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bunday tahlil nafaqat til hodisalarini nazariy o‘rganish, balki globallashuv va tillararo o‘zaro ta’sir sharoitida, ayniqsa, zarur bo‘lgan madaniyatlararo aloqada amaliy qo‘llash uchun ham foydali bo‘lishi mumkin.

Frazeologik birliklardagi ranglar nafaqat umuminsoniy qadriyatlarni, balki har bir madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Tahlil orqali rang semantikasi madaniy kontekst va o‘ziga xos lingvistik birikmalarga qarab ham ijobiy, ham salbiy ma’no kasb etishini ko‘rsatish mumkin. Madaniy tafovutlarni chuqurroq anglash har bir tilning boyligi va o‘ziga xosligini ochib berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Арутюнова Н.Д. Аксиология в механизмах жизни и языка. Проблемы структурной лингвистики 1982, М., “ Наука”, 1984, с. 5 – 23.

(2). Бабаева Я.В. Лингвокультурологические характеристики русской и немецкой аксиологических картин мира. Дис. ... док.филолог.наук, Волгоград, 2004, с. 438.

(3). Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспект.

(4). Болдырев Х.Х. Исследование оценочных смыслов в контексте познавательных процессов. Язык. Текст. Дискурс. Научный альманах. Вып. 8, Ставрополь, 2010, с. 25 – 37.

(5). Karasik V.I. Yazikovoy krug: lichnost, konsepti, diskurs. Volgograd: Peremena, 2002, c. 477.

(6). Rokeach M. Beliefs, attitudes and values. A theory of organization and change. San Francisco, Washington, London: Jossey-Bass Inc. Publishers, 1968, p. 214.

(7). Ammer S. Dictionary of Idioms. Boston New York, Houghton Mifflin Company, 1997, p. 473.

(8). Cambridge Idioms Dictionary. 2nd Edition. Cambridge University Press, 2006.

(9). Cambridge International Dictionary of Idioms. URL:http://dictionaries.cambridge.org (data obrashe-niya: 23.05.2024).

(10). Collins COBUILD Dictionary of Idioms. London, Harper Collins Publishers Ltd., 1997, p. 193.

(11). URL:http://colorrnind.narod.ru/index.htm (data obrasheniya: 22.03.2025).

Ashirbaeva Dilorom Ravshanovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD; hangook2019@gmal.com)

KOREYS VA O‘ZBEK OILA DISKURSIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING GENDER XUSUSIYATI

Annotatsiya*. Koreys va o‘zbek tillari bir oilaga mansub til hisoblanadi. Shunday ekan, har ikkala tilda jumlalar tuzilishi va murojaatlarda o‘xshash jihatlarni ko‘plab o‘rganish va talqin qilish mumkin. Mazkur maqolada koreys va o‘zbek oilasida erkak va ayollarga nisbatan qo‘llaniluvchi murojaatlar ko‘rib chiqiladi va tahlilga tortiladi. Jumladan, murojaatlarning o‘xshash va farqli tomonlari, tarjimada berilishi misollar yordamida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ota-ona, aka, ona, kelin, ayolim, turmush o‘rtog‘im, xotin, uy bekasi, buvi, opa.*

Аширбаева Дилором Равшановна (Ташкентский государственный университет востоковедения, доцент Высшей школы Корееведения, PhD; hangook2019@gmal.com)

ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЕДИНИЦ ОБРАЩЕНИЙ В КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ СЕМЕЙНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *Корейский и узбекский языки принадлежат к одной языковой семье. Таким образом, можно изучить и интерпретировать множество сходств в структуре предложений и упоминаниях на обоих языках. В данной статье рассматриваются и анализируются обращения, используемые в корейских и узбекских семьях в отношении мужчин и женщин. В частности, на примерах поясняются сходства и различия обращений, перевода.*

Ключевые слова: *родители, брат, мать, невестка, жена, муж, жена, домохозяйка, бабушка, сестра.*

Ashirbaeva Dilorom Ravshanovna (Tashkent State University of Oriental Studies, Associate Professor of the Higher School of Korean Studies, PhD; hangook2019@gmal.com)

GENDER CHARACTERISTICS OF UNITS OF ADDRESS IN KOREAN AND UZBEK FAMILY DISCOURSE

Annotation. *Korean and Uzbek languages belong to the same language family. In this way, many similarities in sentence structure and references in both languages can be explored and interpreted. This article discusses and analyzes the appeals used in Korean and Uzbek families in relation to men and women. In particular, examples explain the similarities and differences of appeals and translation.*

Key words: *parents, brother, mother, daughter-in-law, wife, husband, wife, housewife, grandmother, sister.*

Kirish. Til o‘rganish, bir qarashda, oddiydek tuyulsada, koreys millatining pog‘onali munosabatida til me’yorlari, nutq etiketi hamda murojaatlar alohida o‘rin egallaydi. Mazkur maqolada nutq etiketining ajralmas qismi hisoblangan murojaatlar yoritiladi. Murojaatlar juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, maqolada faqatgina oila diskursida qo‘llaniluvchi asosiy murojaat birliklariga to‘xtalishni lozim deb topdik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur maqolani yoritishda N.Sh.Ahmedovaning “O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik konnotativ tadqiqi” mavzuidagi dissertatsiya ishidan, G.O.Kimning “Категории обращения в речевом этикете в корейском языке” hamda Sh.R.Usmanovaning “Koreys va turkiy tillarda undalmalar” va□ □ □ ning□ □ □ □ □ □ □ □ (nutqiy etiket qoidalariga amal qiluvchi murojaatlar) nomli maqolasidan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yoritishda tavsiflash, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qarindoshchilik umumiy ajdoddan kelib chiqganligi yoki turmush qurish orqali yuzaga kelgan ijtimoiy guruh va rolini tashkil qilish orqali individlar orasidagi aloqadir. Qarindoshlik terminlari qadim davrlardan boshlab nutq jarayonida bir kishining ikkinchi kishiga murojaati yoki uchinchi kishini anglatish uchun ishlatiladi. Shunday ekan, qarindoshlik munosabati bilan bog‘liq murojaat birliklari orqali ifodalangan munosabatlar markazida so‘zlovchi turadi, bunda so‘zlovchi qarindoshlik termini bilan yoki unga tinglovchining ismini qo‘shgan holda murojaat qiladi [1;131-b.].

Koreys oilasidagi munosabatlar g‘oyatda murakkab bo‘lib, “mendan katta-kichik” shartiga qat’iyan amal qilinadi. Kattalarga har doim “sizlab” gapiriladi. Bir qarashda, oson bo‘lib tuyulgan murojaat shakllari, aslida, birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, koreys tilidagi pog‘onali munosabatlar kishining diqqatini talab etadi.

Koreys tilida otaga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat so‘zlarini uch guruhga ajratish mumkin: o‘z otasiga□ □ □ aboji *dada*, o‘zgalarning otasiga□ □ □ abonim *dada, amaki* va *marhum ota*□ □ sonchin haqidagi murojaat birliklari. O‘zbek muloqot madaniyatida marhumlarga nisbatan maxsus murojaat shakllari mavjud emas. Biroq marhumlar yodga olinganda, ularning ismlari oldidan “rahmatlik” so‘zi ishlatiladi.

Otasi tug‘ishgan ekanligini bildirish maqsadida□ chin “yaqin/qondosh” so‘zi qo‘shilib aytiladi.□ □ □ [chin appa] *qondosh otam*. Mazkur murojaatlarning xitoy tilidan o‘zlashgan xurmat shakli□ □ [puchin] dir.

Er-xotin munosabatlarida xitob so‘zlarining xilma-xilligi jihatidan koreys tili dunyoda eng boy til hisoblanadi. Er-xotinlar (40%), ko‘pincha, bir-biriga□ □ [yobo] *azizim* yoki□ □ [jagi] deb murojaat qilishadi:

□ □ ,□ □ □ □ □ □ □ . *“**Azizim,** gapimga quloq soling”* [5].

Ayol o‘z eriga nisbatan murojaati yoshini hisobga olib, turlicha bo‘lishi mumkin. Yangi turmush qurilgan vaqtda □ □ [yobo] deb murojaat qilish mumkin. Ammo yoshi ulug‘lashgani sari□ □ [yobo]ning o‘rniga□ □ [yongam] deya murojaat qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Oilada farzand tug‘ilgach, er-xotin munosabatlari o‘zgacha tus oladi. Jumladan, koreys tilida ayoli eriga (farzandning ismi+□ □)□ □ □ □ □ [Sumie appa], *Sumining otasi*, yoki□ □ □ □ [egi appa] *bolamning otasi* deb murojaat qiladi [6;170-b.]. Ba’zi o‘zbek oilalarida ayol eriga katta o‘g‘lining ismi bilan murojaat qiladi. Eriga *otasi, dadasi, adasi* kabi undalmalar vositasida murojaat qiladigan kishilar ham bor:

To‘g‘ri, ***dadasi,*** *men aytaman.*

Kelinlar qaynatasi haqida ota uyidagilariga yoki boshqa kishilarga so‘zlayotganida□ □ □ □ [shiaboji] deb gapiradi.

Koreys oilasida aka va opalarni ismi bilan chaqirish qat’iyan man qilingan. Kezi kelganda, koreys diskursining o‘ziga xos gender tafovutlarini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Koreys ayollarining nutqida “aka”□ □ [oppa], erkaklarining nutqida esa “aka”□ [hyong] ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Qizlarning nutqida o‘ta faol bo‘lgan qarindoshlik oti bo‘lmish□ □ [oppa] “aka” turli holatlarda murojaat vazifasini o‘taydi. Jumladan, ular o‘zidan katta yigitlarni, unashtirilgan yigitlarini hamda o‘zidan yuqori sinfda yoki kursda o‘qiydigan bolalarni □ □ [oppa] deb chaqirishadi. Koreys erkaklarining nutqida □ [hyong] “aka” murojaatini jinoiy guruh yetakchisiga nisbatan ham qo‘llaniladi. Tarjima jarayonida bunday holatlar biroz murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Pog‘onali munosabatlarda samimiyatni ifodalaydigan va “aka” ma’nosini beradigan murojaat birliklaridan yana biri erkaklarning nutqiga xos bo‘lgan□ dir.□ undalmasi akaga, qaynag‘aga, o‘zidan kattalarga, yuqori sinfda yoki kursda o‘qiydiganlarga nisbatan ishlatiladi [4;163-b.].

□ ,□ □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ ? *“**Aka,** bir iltimosim bor edi, aytaveraymi?”*

Oilada buvalarning ham nomlanishi bo‘lib, ularning ota tomondan va ona tomondan ekanligiga qarab turlicha nomlanadi. Ota tomondan buva – □ □ □ □ [haraboji] deb murojaat qilinsa, ona tomondan esa □ □ □ □ □ [wiharaboji] deb murojaat qilinadi. O‘zbek tilida esa buvalarni bobo, buva, katta dada, opoq doda deya murojaat etiladi. Koreys nutqida ota yoki ona tomondan bobolarga murojaat qilinuvchi birliklari mavjud bo‘lgani uchun nutq jarayonida bobo tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun kim tomondan ekanligiga alohida urg‘u berib aytiladi.

Buviga □ □ □ [halmoni], onaga □ □ □ [omoni] deb murojaat qilinadi. Hozirgi kunda shahar va shahar atrofi shevalarida farzandlarning buviga nisbatan□ □ [halmi], onaga□ □ omma singari neytral murojaat shakllarining qo‘llanishi keng tarqalib bormoqda:

□ □ ,□ □ □ □ □ □ □ □ . *“**Oyi,*** maktabdan keldim”.

Koreys tilida onaga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat so‘zlarini uch guruhga ajratish mumkin: o‘z onasiga, o‘zgalarning onasiga va marhum ona haqidagi murojaat birliklariga. Onasiga□ □ □ [omoni] *oyi* deb murojaat qilinadi. Ushbu murojaatlarning muqobil varianti□ □ □ [omonim] shakli esa turmush o‘rtog‘ining onasiga, shuningdek, yaqin do‘stining onasiga nisbatan ishlatish mumkin. Qadimgi koreys tilida marhum ona haqida□ □ [sonbi] deb xitob qilingan. O‘zbek muloqot madaniyatida marhumlarga nisbatan maxsus murojaat shakllari mavjud emas. Biroq marhumlar yodga olinganda, ularning ismlari oldidan “rahmatlik” so‘zi ishlatiladi.

□ □ □ [omonim] so‘zi o‘zgalar oldida onalarini hurmat qilib gapirayotganda qo‘llaniladi. Bu o‘zbek tilida *onamlar* deb muojaat qilishga tengdir.□ □ [omma] (oyijon) deb yosh bolalar onalariga murojaat qilishadi. Onasi tug‘ishgan ekanligini bildirish maqsadida□ [chin] “yaqin/qondosh” so‘zi qo‘shilib aytiladi. □ □ □ [chin omma] *qondosh onam*. Mazkur murojaatlarning xitoy tilidan o‘zlashgan hurmat shakli□ □ [mochin]dir.

Oila jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini bo‘lsa ham, er va xotin oilaning asosidir. Quyida erkak kishining ayoliga nisbatan bir necha ko‘rinishdagi murojaatlarini tahlilga tortamiz.

□ □ Azizam.

Er-xotin munosabatlarida xitob so‘zlarining xilma-xilligi jihatidan koreys tili dunyoda eng boy til hisoblanadi. Er-xotinlar (40%), ko‘pincha, bir-biriga□ □ [yobo] (azizim) yoki □ □ chagi (azizim) deb murojaat qilishadi [3]: □ □ ,□ □ □ □ □ □ . *“**Azizam**, gapimga quloq sol”.*

Oila qurgandan so‘ng, turmush o‘rtoqlar o‘zaro ⊠ ⊠ [yobo], deb murojaat qiladilar. Sharqona tarbiyaning o‘ta kuchliligi murojaat shakllarida ham namoyon bo‘ladi. Koreyada ham turkiy xalqlar singari, turmush o‘rtoqlar bir-birlarini ismlari bilan chaqirishlari uyat hisoblangan. Ammo, qanday bo‘lmasin, chaqirish va murojaat qilish kerak bo‘lgan. Shunda turmush o‘rtoqlar bir-birlarini⊠ ⊠ [yobo], ya’ni, o‘zbek tiliga tarjima qilinganida, *“azizim, azizam”* deya murojaat qiladilar. Ushbu murojaatning kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, qadimda ushbu murojaat ikki so‘zdan, ya’ni, ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ [yogie poseyo] murojaatidan kelib chiqqan bo‘lib, tarjimasi *“bu yerga qarab yuboring”*dir. Vaqt o‘tgani sari ushbu murojaat to‘laligicha aytilmasdan bugungi kunda hammaga ma’lum shakldagi ⊠ ⊠ [yobo]ga qisqargan.

Ushbu murojaat bilan birgalikda ⊠ ⊠ (⊠) [chagi(ya)] murojaati ham keng qo‘llaniladi. Ammo ⊠ ⊠ [yobo]dan farqli jihati shundaki, bu murojaatni turmush qurmagan juftliklar o‘zaro qo‘llashlari mumkin.

⊠ ⊠ Ayolim. Erkak kishi ayolini chaqirayotganida ⊠ ⊠ [puin] deb murojaat qiladi. Koreyslar o‘z ayollari haqida suhbatdoshiga so‘zlayotganida yoki uchinchi shaxs sifatida gapirganida, ko‘p hollarda, ⊠ ⊠ [puin], ya’ni *ayolim* deb aytadilar. Ammo ayoliga qarata xitob qilinganida, ayolim deb emas, balki erkalash ma’nosida qo‘llaniluvchi *xotinjon* yoki *onasi* deb tarjima qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ? ***Xotinjon (onasi),*** mening paypog‘im qayerda?

Ushbu murojaat ayoliga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan hurmatni bildiruvchi murojaat hisoblanib, nisbatan quyi bo‘lgan murojaat ham mavjud, u ⊠ ⊠ ⊠ [chip saram]dir [6;153-b.].

O‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinganida, *uy odami* deya tarjima qilinadi. Jumlalarda kelganida *uy odami* deb emas, balki *uy bekasi* deya tarjima qilingani maqsadga muvofiqdir. Ammo o‘zbek tilida *uy bekasi* quyi murojaat birligi sanalmaydi.

<u>⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠</u> **⊠ ⊠ ⊠** <u>⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠</u>. U *uy bekasiga* ham so‘zlay olmaydigan vaziyat yuzaga kelgandi.

Bugungi globallashuv jarayonlari har sohaga jadallik bilan kirib borayotgan bir paytda, murojaat birliklari ham ushbu ta’sirdan chetda qolmadi. Koreys tili leksik qatlamining 70% kelib chiqishi xitoy ierogliflariga borib taqaluvchi so‘zlar bo‘lib, bugungi kunda ushbu qatlam ingliz tilidan kirib kelayotgan o‘zlashmalar bilan yanada boyimoqda. Hozirgi kunda ⊠ ⊠ ⊠ [waipheu] murojaati ham keng tarqalgan bo‘lib, ushbu murojaat inliz tilidagi wife, ya’ni *ayol, ayolim* so‘zidir.

⊠ ⊠ ⊠ “⊠ ⊠ ” Ayol uchun “yongam”.

Yangi turmush qurgan vaqtda erkak kishi ayoliga nisbatan ⊠ ⊠ [yobo] deb murojaat qilish mumkin. Ammo turmush o‘rtoqlarning yoshi ulug‘lashgani sari muhabbatga to‘la bo‘lgan ma’noni beruvchi ⊠ ⊠ ⊠ [manura] murojaati ko‘proq qo‘llanidi. O‘zbek tiliga *onajonisi* deb tarjima qilishimiz mumkin.

⊠ ⊠ ⊠ , ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ? ***Onajonisi,*** bolalar qayergadir ketishdimi?

Har ikki tilda ham turmush o‘rtoqlar orasidagi munosabatlarda murojaat birliklari yoshga nisbatan o‘zgarishini misollar orqali ko‘rish mumkin.

Oilada farzand tug‘ilgach er-xotin munosabatlari o‘zgacha tus oladi. Ularning bir-biriga bo‘lgan hurmati ortadi. Bu hurmat katta farzandning ismini qo‘shib murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, koreys tilida erkak kishi ayoliga (farzandning ismi+⊠ ⊠) ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ [Sumie omma] Sumining onasi, yoki⊠ ⊠ ⊠ ⊠ [egi omma] *“bolamning onasi”* deb murojaat qilinadi. Ba’zi o‘zbek oilalarida erkak ayoliga katta qizining ismi bilan, ayol esa turmush o‘rtog‘iga katta o‘g‘lining ismi bilan murojaat qilish hollari kuzatiladi. Ayoliga onasi, oyisi, ayasi, ayolining ismi bilan, xotin kabi undalmalar vositasida murojaat qiladigan kishilar ham bor:

Hoy ***onasi,*** suyunchini cho‘z [4;74–77-b.].

Qadimgi turkiy xalqlarda kishilarning ismiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish shaxsning o‘ziga nisbatan ham hurmat-ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan. Bunday hurmat izhor qilishning asosiy yo‘li esa kishi ismini aytib chaqirmaslikdir. Shunga ko‘ra, turkiy xalqlarning ko‘pchiligida yoshlar o‘zidan kattalarning, er-xotinlar bir-birining ismini aytish mumkin emasligi haqidagi rasm-rusumlar paydo bo‘lgan [2;25-b.]. Yoshlar kattalarga qarindoshlik terminlari bilan, er-xotinlar esa bir-biriga farzandlarining ismi yoki onasi, otasi kabi so‘zlar bilan murojaat qilgan.

Kelinlar qaynana haqida ota uyidagilariga yoki boshqa kishilarga so‘zlayotganida ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ [shiomoni] deb gapiriladi. Shu bilan bir qatorda, ‘⊠ ⊠ ’ [choe] yoki ‘⊠ ⊠ ’ [nae] *mening kabi o‘zlik* olmoshi ⊠ ⊠ ⊠ ⊠ [shiomoni], ya’ni qaynona so‘zidan oldin qo‘shib gapiriladi. Agar kelinning suhbatdoshi qayna-

naga nisbatan yoshroq bo‘lsa, unda□ □ □ □ [shiomoni] murojaatidan keyin –□ –nim, *ya’ni –jon* affiksi albatta qo‘shilishi lozim hisoblanib, □ □ □ □ shiomonim tarzida gapirishni taqozo etadi.

Agar kelin farzandlik bo‘lsa, qaynanasi haqida farzandining ismini aytib, keyin *...ning buvasi* yoki *...ning buvisi* deb so‘zlaydi.

Umuman, -□ va -jon affiksli murojaat birliklari koreys va o‘zbek muomala madaniyatining eng go‘zal va nozik qirralarini ko‘rsatuvchi milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Koreys oilasida aka va opalarni ismi bilan chaqirish qat’iyan man qilingan. Kezi kelganda, koreys diskursining o‘ziga xos gender tafovutlarini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Koreys ayollarining nutqida □ □ [oppa] “aka”, □ □ [onni] “opa”, koreys erkaklarining nutqida□ [hyong] “aka”, □ □ [nuna] “opa” singari murojaat shakllari farqlanadi. □ □ [onni] “opa” ko‘rinishidagi murojaat shakllarini kafe va restoranlarda ham uchratish mumkin.

Oilada buvi ota tomonidan va ona tomondan ekanligiga qarab, turlicha nomlanadi. Ota tomondan buvi – □ □ □ [halmoni] deb murojaat qilinsa, ona tomondan buvi – □ □ □ □ [wihalmoni] deb murojaat qilinadi. O‘zbek tilida esa buvilarga *momo, buvi, katta oyi* deb murojaat etiladi. Koreys nutqida ota yoki ona tomondan buvilarga murojaat qilinuvchi birliklar mavjud bo‘lgani uchun ham tarjima jarayonida *buvi* kim tomondan ekanligi tinglovchiga tushunarli bo‘lishi uchun alohida urg‘u berib tarjima qilinadi.

Shu bilan bir qatorda, □ □ □ halmoni so‘zini qarindosh bo‘lmagan, lekin yoshi ulug‘ kimsalarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Buvilar nabiralariga o‘zlarini □ □ [halmi] ya’ni, buving deb aytadilar. Masalan: □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ □ . ***Buving*** *senga shirinlik olib keldi.*

Mazkur jumlada *“buving”* so‘zi □ □ □ [halmoni] deb emas, balki □ □ [halmi] tarzida berilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, qarindoshlik terminlari murojaat birligi bo‘lib keladigan eng faol so‘zlardir. Nutqda ular so‘zlovchi tomonidan tinglovchining yoshi, jinsi, qarindoshlik belgilari asosida tanlanadi. Koreys oilasida ham ayollarga, xuddi o‘zbek tili kabi, uzoq tarixga ega bo‘lgan milliy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan murojaat shakllarini kuzatish mumkin. Har ikkala tilda ham ba’zan notanish kishilarga nisbatan ham qarindoshlikni ifodalovchi so‘zlar murojaatda qo‘llaniladi. Bunda, asosan, tinglovchining yoshi va jinsi inobatga olinadi. Koreys diskursining gender tafovutlari qarindoshlik terminlari bilan ifodalangan murojaat birliklarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarjima jarayonida koreys tilida bir so‘z bilan berilgan murojaat birliklari o‘zbek tiliga tarjima qilinish jarayonida ba’zida ikki so‘z bilan, ba’zida esa uchta so‘z bilan ham berilish holatlari kuzatiladi. Bu holat har bir tilning o‘z xususiyatidan kelib chiqgan holda yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ahmedova N.Sh. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik konnotativ tadqiqi. Filol. fanlari nomzodi diss., Toshkent, 2008.

(2). Begmatov E. Nomlar va odamlar. Toshkent, “Fan”, 1996.

(3). Ким Г. О категории обращения в речевом этикете в корейском языке. 2004.

(4). Usmonova Sh. Koreys va turkiy tillarda undalmalar. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Toshkent, “Universitet”, 2004.

(5). Usmanova Sh. O‘zbek va koreys tillarida rasmiy murojaat shakllari. Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami, III, Toshkent, 2012.

(6). □ □ □ . □ □ □ □ □ □ □ □ . □ □ □ □ □ . 2005.

Mardonova Sitora Mardonovna (SamDCHTI, PhD)

QADIMGI INGLIZ TILIDA ISHLATILGAN “SĪÞIAN, SWENGAN, WEORPAN” FE’LLARI SEMANTIK TARAQQIYOTI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot qadimgi ingliz tilida ishlatilgan fe’llarning semantik rivojlanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy maqsad qadimgi ingliz tili davrida keng qo‘llanilgan fe’llarning lug‘aviy ma’nosi va funksional o‘zgarishlarini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tarixiy-lingvistik yondashuv asosida qadimgi ingliz tilidagi matnlar, masalan, “Beovulf” asarida ishlatilgan misollar va boshqa yozma manbalar tahlil qilinadi. Ishning nazariy qismi semantik o‘zgarish turlarini, xususan, ma’no torayishi (narrowwing), ma’no kengayishi (broadening), metaforik va metonimik o‘zgarishlarni tushuntiradi. Amaliy qismda esa qadimgi inglizcha fe’llarning bugungi ingliz tilida qanday rivojlanganligi, ayrim hollarda esa yo‘qolib ketganligi ko‘rsatiladi. Misol sifatida “sīþian, swengan, weorpan” kabi asosiy fe’llar tahlil qilinadi. Tadqi-*